

TIL BIRLIKLARI O‘RTASIDAGI PARADIGMATIK, SINTAGMATIK VA ASSOTSIATIV MUNOSABATLAR

Gafurova Umida Kadirxanovna

University Business and Science o‘qituvchisi

umidaqodirxanovna@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada til birliklari o‘rtasidagi paradigmatic, syntagmatic va assotsiativ munosabatlarning mohiyati, ularning o‘zbek tili tizimidagi o‘rni va o‘zaro aloqasi tahlil qilinadi. Paradigmatik munosabat tanlov tamoyiliga, syntagmatic munosabat esa birikish tamoyiliga asoslanib, tilning struktur va funksional tabiatini belgilaydi. Assotsiativ aloqa esa inson ongida so‘zlar o‘rtasida yuzaga keladigan semantik bog‘lanishlarni ifodalaydi. A. Nurmonov, N. Mahmudov va R. Sayfullayeva tadqiqotlariga tayangan holda maqolada ushbu uch munosabatning integratsiyasi tildagi semantik, grammatik va psixolingvistik jarayonlarning uzviyligini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: *paradigmatik munosabat, syntagmatic munosabat, assotsiativ aloqa, struktur tilshunoslik, o‘zbek tili tizimi, A. Nurmonov, N. Mahmudov, R. Sayfullayeva.*

ABSTRACT

This article examines the essence of paradigmatic, syntagmatic, and associative relations among linguistic units and their interconnection within the Uzbek language system. Paradigmatic relations are based on the principle of selection, while syntagmatic relations are grounded in the principle of combination, revealing the structural and functional nature of language. Associative relations represent semantic links formed in human cognition. Relying on the research of A. Nurmonov, N. Mahmudov, and R. Sayfullayeva, the article highlights how the integration of these three relations ensures the semantic, grammatical, and psycholinguistic unity of the Uzbek language system.

Keywords: *paradigmatic relation, syntagmatic relation, associative connection, structural linguistics, Uzbek language system, A. Nurmonov, N. Mahmudov, R. Sayfullayeva.*

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются сущность парадигматических, синтагматических и ассоциативных отношений между языковыми единицами и их взаимосвязь в системе узбекского языка. Парадигматические отношения основаны на принципе выбора, синтагматические — на принципе сочетания,

что определяет структурно-функциональную природу языка. Ассоциативные связи отражают семантические отношения, возникающие в сознании человека. На основе трудов А. Нурмонова, Н. Махмудова и Р. Сайфуллаевой показано, что интеграция этих трех типов отношений обеспечивает семантическое, грамматическое и психолингвистическое единство языковой системы.

Ключевые слова: *парадигматические отношения, синтагматические отношения, ассоциативные связи, структурная лингвистика, система узбекского языка, А. Нурмонов, Н. Махмудов, Р. Сайфуллаева.*

KIRISH

Til — ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat hayotining ajralmas qismi bo‘lib, unda inson tafakkuri, ong jarayonlari va madaniy tajriba mujassamdir. Til tizimining ichki tuzilmasi va undagi birliklarning o‘zaro aloqadorligi tilshunoslikning markaziy masalalaridan biridir. Har bir til o‘z ichida murakkab, lekin muvozanatli uzviy tizimni tashkil etadi. uning tarkibidagi birliklar (fonema, morfema, so‘z, so‘z birikmasi, gap, matn) o‘zaro bog‘lanish orqali mavjud hisoblanadi.

Til birliklari o‘rtasidagi paradigmatic, syntagmatic va assosiativ munosabatlar ana shu tizimli bog‘lanishlarning nazariy asosini tashkil etadi. Mazkur tushunchalar struktural tilshunoslikning muhim kategoriyalaridan biri bo‘lib, ularni aniqlash va izohlash tilning ichki mexanizmini ochishga xizmat qiladi. Bu munosabatlar nafaqat til tizimini, balki nutq hosil bo‘lishining psixolingvistik mexanizmlarini ham ochib beradi. Shuning uchun ularni chuqur o‘rganish o‘zbek tili tizimini struktur va funksional jihatdan talqin etishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bu tamoyillar dastlab F. de Sossyur tomonidan nazariy jihatdan asoslab berilgan bo‘lib, keyinchalik L. Elmslev, R. Jakobson, N. Xomsky, A. Martine, J. Firbas, shuningdek, o‘zbek tilshunosligida A. Nurmonov, N. Mahmudov, R. Sayfullayeva, S. Karimov singari olimlar tomonidan turli yo‘nalishlarda chuqurlashtirildi.

Til birliklari — fonema, morfema, so‘z, birikma, gap kabi mustaqil, ammo bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan elementlardir. Ular tilning ierarxik tizimini tashkil etadi. Har bir yuqori sathdagi birlik quyi sathdagi birliklardan tuziladi: fonemalar morfemalarni, morfemalar so‘zlarni, so‘zlar birikma va gaplarni hosil qiladi.

Til sistemasi ichida birliklarning o‘zaro munosabati ikki asosiy yo‘nalishda qaraladi:

Vertikal (paradigmatik) yo‘nalish — bir xil lavozimdagi, ammo o‘rnini bosuvchi birliklar o‘rtasidagi munosabat;

Gorizontal (sintagmatik) yo‘nalish — bir-biri bilan ketma-ket bog‘langan birliklar o‘rtasidagi munosabat.

Bu ikki munosabat turiga qo‘shimcha tarzda til birliklarining ongda assotsiativ bog‘lanishlari ham mavjud bo‘lib, ular paradigmatic tizimning psixolingvistik ko‘rinishini ifodalaydi.

Paradigmatik munosabat til tizimidagi “tanlov” tamoyiliga asoslanadi. Bir turdagi birliklar o‘zaro bir pozitsiyani egallashi mumkin, ya’ni ular bir-birini ma’lum kontekstdan kelib chiqib almashtira oladi.

Masalan, *men bordim, sen bording, u bordi* shakllari bitta paradigma (fe’lning shaxs paradigmasi) doirasida turadi.

Yoki *go‘zal, chiroyli, latofatli, xushsurat* so‘zlari bir paradigma doirasidagi leksik sinonimlardir. Ularning tanlanishi nutq kontekstiga, uslubiy maqsadga bog‘liq holda amalga oshadi.

Paradigmatik bog‘lanish o‘zbek tilining barcha sathlarida kuzatiladi:

- Fonetika: p-b, t-d, k-g oppozitsiyalari.
- Morfologiya: bor – bordi – boradi – borar – boraylik.
- Leksika: katta – ulkan – buyuk – keng.
- Sintaksis: Men keldim – Keldim – Men bugun keldim.

Sintagmatik munosabatlar tildagi birliklarning nutq zanjirida ketma-ket birikishi yoki kontekstual bog‘lanishidir. Bu munosabatlar tilning dinamik qirrasini ifodalaydi, chunki u nutq jarayonida yuzaga chiqadi.

Har bir birlik (so‘z, morfema, gap) o‘z ma’nosini faqat kontekstdagi boshqa birliklar bilan munosabatda bo‘lgandagina to‘liq ifodalaydi.

Masalan, yaxshi odam keldi gapida yaxshi – odam (sifat+ot) va odam – keldi (ega+kesim) orasidagi bog‘lanish sintagmatik bog‘lanishdir.

Tilning turli sathlarida sintagmatik munosabat quyidagicha namoyon bo‘ladi:

- Fonetika: tovushlarning o‘zaro birikish qobiliyati (ng tovushi tong, rang kabi so‘zlarda ishlatiladi).
- Morfologiya: morfemalarning qo‘shilish tartibi (kitob+lar+imiz+ni).
- Sintaksis: so‘zlarning joylashuvi (Men ertalab maktabga bordim).

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Assotsiativ munosabat paradigmatic yoki sintagmatik kabi grammatik emas, balki psixolingvistik tabiatga ega. U insonning ongida so‘zlar va tushunchalar o‘rtasida shakllanadigan semantik tarmoqlarga asoslanadi.

Masalan, daryo so‘zi eshitilganda ongda avtomatik ravishda suv, oqim, qirg‘oq, baliq, to‘lqin kabi so‘zlar uyg‘onadi, “kitob” so‘zi eshitilganda ongda “maktab”, “o‘qish”, “o‘quvchi”, “kutubxona” kabi so‘zlar uyg‘onadi. Bu birliklar tilda

sintagmatik tarzda bog‘lanmagan, ammo ongda o‘zaro yaqinlik asosida assotsiatsiya hosil qiladi. O‘zbek tilida bunday bog‘lanishlar xalq ongida, idiomatik birliklarda va metaforik ifodalarda keng namoyon bo‘ladi (dil oynasi, yurak og‘ridi va b.q.). Assotsiativ aloqalar tildagi mazmuniy kenglik, semantik metaforizatsiya va madaniy konnotatsiyalarni yuzaga keltiradi. Ular ko‘pincha tilda yashirin paradigmatic aloqalarni faollashtiradi. O‘zbek tilida assotsiativ munosabatlar madaniy asosda (non – baraka, suv – hayot), metaforik asosda (yurak og‘ridi – “achindi” ma’nosida), idiomatik asosda (ko‘ngli osmonda, dilida g‘ashlik) kabi ifodalarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Til tizimida paradigmatic, sintagmatik va assotsiativ munosabatlar mustaqil mavjud emas, balki ular bir-biri bilan integratsiyalashgan holda mavjud bo‘ladi.

Paradigmatic aloqa tanlov imkoniyatini yaratsa (*men bordim / keldim / o‘qidim*), sintagmatik aloqa ularning birikish tartibini belgilaydi (*Men bugun maktabga bordim*). Assotsiativ aloqa esa ularni ongda bog‘lab turadi (*maktab – kitob – dars – o‘qituvchi*). A. Nurmonov va N. Mahmudovlarning tadqiqotlarida bu uch munosabatning o‘zaro aloqasi o‘zbek tilining struktur tizimini anglashda markaziy o‘rin tutishi qayd etilgan. Ularning fikricha, tildagi har bir birlik paradigmatic jihatdan tanlanadi, sintagmatik jihatdan joylashadi va assotsiativ jihatdan idrok qilinadi. B u uch munosabat tildagi barcha jarayonlarning semantik, struktur va psixolingvistik asosini tashkil etadi. Ular birgalikda tildagi “tizim” va “jarayon” tushunchalarini uyg‘unlashtiradi.

XULOSA

Paradigmatic, sintagmatik va assotsiativ munosabatlar til tizimining uch asosiy o‘qini tashkil etadi. Ular orqali til birliklarining funksional qiymati, semantik o‘zgaruvchanligi va nutqiy faolligi namoyon bo‘ladi. Ushbu munosabatlarning integratsiyasi tilning struktur, funksional va psixolingvistik qirralarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois bu munosabatlarni ajratilgan holda emas, balki yagona sistemaviy jarayon sifatida o‘rganish zarur. O‘zbek sistem-struktur tilshunosligi vakillari (A. Nurmonov, N. Mahmudov, R. Sayfullayeva)ning tadqiqotlarida bu tamoyil uzviylikda tahlil qilinib, tilning yaxlit strukturasi tanlov va birikish jarayonlari orqali shakllanishi isbotlangan.

O‘zbek tilshunosligida mazkur munosabatlarning tahlili til tizimini chuqurroq anglash, uning ichki qonuniyatlarini aniqlash va milliy grammatik modellarni yaratishda zarur ilmiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Turakulova, U. (2025). ASPECTS OF TEACHING GRAMMAR TO ELEMENTARY AND INTERMEDIATE LEVEL STUDENTS. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(2), 1216-1219.
2. Xabibillayev, N. (2024). IZOFALI BIRIKMALARNING TARKIBGA AJRATILISHI BORASIDAGI QARASHLAR VA ULARNING AYRIMLARI TAHLILI (2-QISM). *Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения*, 3(9), 18-20.
3. Xabibillayev, N. (2024). IZOFALI BIRIKMALARNING TARKIBGA AJRATILISHI BORASIDAGI QARASHLAR VA ULARNING AYRIMLARI TAHLILI. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 3(11), 79-80.
4. Xabibillayev, N. (2024). HOZIRGI O 'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA RAVISH MASALASI (1-qism). *Молодые ученые*, 2(22), 17-22.
5. Xabibillayev, N. (2024). AZIM HOJIYEVNING MORFEMA BORASIDAGI QARASHLARI. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 3(8), 21-26.
6. Habibullayev, N. N. O. G. L., & QOZOQ, V. O. Z. T. M. (2023). SO'ZLAR CHOG'ISHTIRMASI.
7. Xabibillayev, N. (2024). Mumtoz Adabiyotni Targ 'Ib Etishda Adabiy Moslashtirishning Ahamiyati (—Lison Ut-Tayrl Ning Moslashtirilgan Matni Misolida). *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 16, 65-71.
8. DILMUROD, A., & SHOIRA, B. (2025). FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY TAHLILI ("Alpomish" dostoni asosida). *XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR*, 1(6), 191-199.
9. Iskandarova, S., Kuziyev, U., Ashurov, D., & Rakhmatullayeva, D. (2024, November). Advancing Natural Language Processing: Beyond Embeddings. In *2024 International Conference on IoT, Communication and Automation Technology (ICICAT)* (pp. 792-796). IEEE.
10. Ashurov, D. A. (2019). THE LINGVOCULTURAL CHARACTERICS OF COLOR COMPONENT PHRASEOLOGIES IN THE VERSION OF "ALPOMISH" EPIC. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(6), 279-282.
11. QOBILOVA, Z., & AHMADALIYEV, L. (2025). "O 'ZBEK ADABIYOTI NAMUNA DAFTARI" TAZKIRASIDA ALISHER NAVOIY FAOLIYATINING YORITILISHI. *Hamkor konferensiyalar*, 1(11), 183-189.

12. Ahmadaliyev, L. (2025). QAYUMOVLAR SULOLASI UY-MUZEYINI TASHKIL ETISHNING AMALIY AHAMIYATI. *University Research Base*, 382-398.
13. Ahmadaliyev, L. (2025). “O ‘ZBEK ADABIYOTI NAMUNA DAFTARI” TAZKIRASINING ADABIY AHAMIYATI. *University Research Base*, 360-367.
14. Lochinbek, A. (2022). “XO ‘QAND TARIXI VA UNING ADABIYOTI”–MANBA SIFATIDA. *OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI*, 250.
15. Muhammadyusuf o‘g‘li, A. L. (2024). KULFAT IJODINING O‘RGANILISHI. *UBS Scientific Bulletin*, (4), 94-105.
16. G‘anijonovich, T. R. (2025, October). MODAL SO‘ZLAR VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI. In *Conferences* (Vol. 1, No. 6, pp. 102-105).
17. Tojimatov, R. (2025). NOUNS CONNECTED WITH THE NAMES OF HISTORICAL PERSONS IN THE WORKS OF SAID AHMAD HAJVI. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(5), 418-420.
18. Tojimatov, R. G. A. (2025). SAID AHMAD HAJVIY ASARLARIDA KINOYALI HAJVNING LISONIY XUSUSIYATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(5), 461-467.
19. Tojimatov, R. G. A. (2023). MUHAMMAD YUSUF IJODIDA QO‘LLANILGAN POETONIMLARNING LINGVOPOETIK, JIHATDAN TAHLIL QILISH TAMOIYILLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(12), 174-180.